

## TARIXIY BINOLAR JAMIYAT MADANIYATI KO'ZGUSIDIR (REGISTON, ICHAN QAL'A, DISHAN QAL'A ME'MORIY OBIDALARI MIQYOSIDA)

*Xudoykulov Rustam Quchqorovich*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti*

*Davlatov Diyor Dilshodovich*

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Dunyoda inson qo'li bilan yaratilgan va necha ming yillardan beri saqlanib, o'z jozibasini yo'qotmay kelgan tarixiy obidalar ko'plab uchraydi. Vatanimiz hududida ham o'tmishdan sado beruvchi ko'plab tarixiy obidalar yetib kelgan. Ushbu maqolada yurtimiz o'tmishini, madaniyatini, xalqimiz ong va shuurining yorqin aksi hisoblangan tarixiy yodgorliklarimiz haqida xabar beradi.

**Kalit so'z:** Me'moriy obidalar, qal'a, Registon, Ichan qal'a, Dishan qal'a.

Vatanimiz O'zbekiston va o'zbek xalqi juda ham katta va boy tarixga ega.

Qadimda Turon, Turkiston, Movarounnahr kabi ko'plab nomlar bilan atalgan. Bu yerlarda tasviriy san'at, musiqa, me'morchilik va hunarmandchilik rivoj topib, o'ziga xos madaniyatni yuzaga keltirdi. Yurtimizda bir-biridan ertaknamo tarixiy obidalar mamlakatimizning har bir hududida uchraydi. Inson qo'li bilan yaratilgan va 1000 yillar davomida saqlanib kelayotgan obidalar dunyoda juda ham ko'p. Ammo bizning obidalar o'zining buyuk sharqona me'morchiligi asosida bunyod etilgani bilan ajralib turadi. Bu obidalar nafaqat ichki sayyohlarni, balki chet el san'atsevarlarini ham yurtimizga kelishida katta ro'l o'ynaydi va shu bila bir qatorida turizmning rivojlanishiga o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Tarixda bizning yurtimizdagi binolar kabi binolarni qurish faqat buyuk va qudratli davlatlarga moliyashtira olgan. Bu shuni anglatadiki qadimda bizning yurtimiz hududida bo'lgan davlatlar buyuk davlatlar qatoriga kirgan. Ayniqsa me'morchilikga alohida e'tibor Temuriylar davrida ro'y bergan. Hattoki 1404-yilda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchilari Amir Temurning davrida olib borilayotgan me'morchilik ishlaridan hayratda qolgan edi. Bu shuni anglatadiki, buyuk sarkarda Amir Temurning: "Bizning qudratimizga shubha qilsangiz biz qurgan imoratlarga boqing"<sup>1</sup>, - degan gaplari bejizga emas. Tarixiy obidalar jamiyat madaniyat ko'rkidir.

### ➤ **Registon ansambli**

O'rta asrlarda hamma katta shaharlar markazi "Registon" deb atalar edi. Shu nomdagi maydonlar Buxoro, Shahrisabz va Toshkenda ham bo'lgan. Samarqanddagi maydon esa O'rta Osiyodagi eng mahobatli va tahsinga sazovor maydonlardan biri edi.

<sup>1</sup> Amir Temur

Bu maydonlarda bir necha ming yillik tarix mujassam. Registon ansambli-Samarqandning Registon maydonida 3 Madrasa (Ulug'bek madrasasi, Tilla-Qori madrasasi, Sherdor madrasasi) dan iborat. "Registon" so'zi "qumloq joy" degan ma'noni anglatadi.

1417-yilda Ulug'bek Registon maydonida Ulug'bek madrasasi qurilishini boshladi. Bu madrasa dastlab 50 hujradan iborat edi. Keyinchalik esa madrasa yonidan masjid va karvonsaroy kabi binolar ham qo'shildi. Ansamblning burchaklarida 4 ta minora ham bor edi. Bu madrasa 3 yil (1917-1920) davomida qurildi.

1619- yildan 1636- yilgacha me'mor Abdul Jabbor tomonidan barpo etilgan Sher-dor madrasasi qurilgan. Sherdor madrasasi "sherlar maskani" degan ma'noni beradi. Unda kvadrat hovli ikki qavatli hujralar bilan o'ralgan- hujralar; hovlining har ikki tomonining o'rtasida chuqur ayvon bor.

1646-1660 yillarda uchunchi ya'ni Tilla-Qori madrasasi qurib bitkazilgan. U Mirzo Ulug'bek davridan qolgan eski karvonsaroy o'rnida Yalangtush biy Baxodurning buyrug'iga ko'ra qurilgan. Tilla-Qori madrasasi qolgan madrasalardan kattaligi va berilgan bezaklari bilan ajralib turadi. Tilla-Qori so'zi "oltin bilan bezatilgan" degan ma'noni anglatadi.

Registon ansambli mustaqillik davridan so'ng o'zining ulug'vor nomini qayta tikladi desak adashmaymiz. Mustaqillik yillarigacha bu tarixiy obidalar tamir ta'lab ahvolga kelib qolgan edi. Istiqloлга erishganimizdan so'ng registon ansambli qayta rekonstruksiya qilindi. 1997- yildan boshlab esa "Sharq taronalari" xalqaro musiqiy festivali ham aynan Registon da an'anaviy tarzda o'tkaziladigan bo'ldi. 2001-yilda esa bu uch madrasa UNESCOning butun dunyo yodgorlikari ro'yxatiga kiritildi.

### ➤ **Ichan qal'a va Dishan qal'a**

O'zbekistonning yana bir ertaknamo shaharlaridan biri bu Xiva shahridir.

Bu shahar o'zining ichiga uzoq o'tmishni oladi. Bu shaharda juda ham ko'p tarixiy obidalar mavjud va shu bilan bir qatorda bu obidalar chet el sayyohlarini qiziqtiradi.

Xiva shahriga keladigan bo'lsak u yerda Katta minor, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Ichan qal'a, Dishan qal'a kabi ko'plab tarixiy va me'moriy obidalar mavjud.

Ichan qal'a va Dishan qal'a bir-biridan devor bilan ajralib turadi. Dishan qal'a – Tashqi qal'a Xiva sharining rabot qismi hisoblanadi. 1842-yilda Xiva xoni Olloqulixon Xiva sharini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7-8 metr, devorning qalinligi esa 5-6 metr bo'lgan devor bilan o'ratgan. Dishan qal'a Ichan qal'adan darvozalari soni bilan ham ajralib turgan. Ichan qal'a 4 darvozali bo'lsa; Dishan qal'a 10 darvozali bo'lgan. Dishan qal'a ko'chalari Ichan qal'a davomi tarzida qurilgan. Shaharning tim va savdo rastalari Dishan qal'ada joylashgan. Ichan qal'ani bunyod etishda Xiva me'morlari

Markaziy Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana-inshootlarni ro'parama-ro'para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul "Qo'sh" deb nomlangan. 1990-yil Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan va muzeyga aylantirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tarixsiz kelajak yo'q. O'z tarixini bilmagan insonning ertangi kuni porloq bo'lmaydi. Yurtimizda juda ham k'op tarixiy inshootlar bor ularni asrab avaylash esa barchaning burchi hisoblanadi. Chunki bu me'moriy obidlar bizning shonli tariximizni asosi hisoblandi. Tarixni o'rganishimizda esa asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzaev Me'morchilik 1,2,3, qismlar. Toshkent, "Tafakkur", 2010
2. Ojekov S.S., O'ralov A.S., Rahimov K.J Landshaf arxitekturasi va dizayn. Samarqand, 2003
3. Nozilov D. Markaziy Osiyo me'morchiligida intryer T., 2005